| Mahsutaliyev Abdusalom Hasanovich                                                                                                             |     |





|                                                                                                                                                        |     |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| ZIYORAT TURIZMIDA DESTINATSIYA VA GEOAXBOROT TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH .....                                                                          | 433 |
| Qosimov Jahongir Ro'ziboyevich, Suyunova Nilufar                                                                                                       |     |
| YEVROPA DAVLATLARIDAGI KORXONALARDA MOLIVAVIY REJALASHTIRISH AMALIYOTINING<br>TAHLILI VA ULARDAN O'ZBEKISTON MOLIVA TIZIMIDA QO'LLASH MASALALARI ..... | 440 |
| Pardayev Jamshid Muzaffarovich                                                                                                                         |     |
| TASHKILOTNING RAQAMLI TRANSFORMATSIYA LOYIHALARINI BOSHQARISH .....                                                                                    | 446 |
| Xasanov Odilxon Kaxxorovich                                                                                                                            |     |
| O'ZBEKISTON TURIZM SANOATINING XALQARO RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA<br>STRATEGIK MARKETING TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH .....                     | 450 |
| Kobilova Shozoda Timurovna, Isxakova Sarvar Ayubovna                                                                                                   |     |
| THE ROLE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN LABOR THEORY: EVOLUTION, CHALLENGES AND<br>FUTURE PROSPECTS .....                                               | 456 |
| Tukhliyev Bakhodir Adinaevich                                                                                                                          |     |
| ОСОБЕННОСТИ ПРОЦЕССА ПЕРВОГО ПРИМЕНЕНИЯ МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТОВ<br>ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ В СИСТЕМЕ УЧЕТА И ОТЧЕТНОСТИ РЕСПУБЛИКИ<br>УЗБЕКИСТАН .....  | 460 |
| Астанов Зафар Муродуллаевич                                                                                                                            |     |
| TA'LIM MUASSASALARIDA O'QITISH SIFATINI OSHIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR<br>PLATFORMALARINI YARATISH VA ULARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI .....       | 466 |
| To'xtamishева Dilrabo Shermonovna                                                                                                                      |     |
| KICHIK VA O'RTA BIZNESNI YASHIL IQTISODIYOT TAMOIYILLARI ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING<br>INNOVATSION MEXANIZMLARI .....                                  | 472 |
| Norboyev Sarvar Azodovich                                                                                                                              |     |
| MINTAQAVIY RIVOJLANISHDA INVESTITSİYALARDAN SAMARALI FOYDALANISHNING USTUVOR<br>YO'NALISHLARI .....                                                    | 476 |
| Xatamova Manzura Ochilidievna, Safarov Botir Isaq o'g'li                                                                                               |     |
| MAXSUS IQTISODIY ZONALARDA SOLIQ MA'MURIYATCHILIGINI TAKOMILLASHTIRISHNING<br>METODOLOGIK YONDASHUVLARI .....                                          | 482 |
| To'rayeva Nafisa Odiljonovna                                                                                                                           |     |
| O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA RAQAMLI TO'LOV TIZIMLARINI RIVOJLANTIRISHNING PUL<br>MUOMALASI BARQARORLIGIGA TA'SIRINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI .....  | 487 |
| Xazratkulov O'ktamjon Xikmatullayevich                                                                                                                 |     |
| O'ZBEKISTONDA TAKSI XIZMATLARI BOZORIDA INSTITUSIONAL ISLOHOTLARNING IQTISODIY<br>AHAMIYATI .....                                                      | 491 |
| Jaloliddinov Anvar Jaloliddin o'g'li                                                                                                                   |     |



# O'ZBEKISTONDA TAKSI XIZMATLARI BOZORIDA INSTITUSIONAL ISLOHOTLARNING IQTISODIY AHAMIYATI

Jaloliddinov Anvar Jaloliddin o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti  
Iqtisodiy va moliyaviy xavfsizlik kafedrası katta o'qituvchisi  
ORCID: 0009-0009-8620-4701

**Annotatsiya.** Maqolada O'zbekistonda taksi xizmatlari bozorida amalga oshirilgan institutsional islohotlarning iqtisodiy samaradorligi tahlil qilingan. Litsenziyalash tartibining soddalashtirilishi, raqamli platformalarning joriy etilishi hamda o'zini o'zi band qilgan haydovchilar institutining rivojlanishi natijasida rasmiylashuv darajasi va soliq bazasi kengaygani statistik ma'lumotlar asosida baholangan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, 2018–2025 yillar davomida rasmiy haydovchilar soni qariyb 22 barobarga oshgan, soliq tushumlari esa barqaror fiskal manbaga aylangan. Maqolada “keng qamrov — past stavka” modeli sharoitida shakllanayotgan fiskal samaradorlik mexanizmi iqtisodiy jihatdan tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** kichik biznes, taksi bozori, raqamli platformalar, litsenziyalash, fiskallashtirish, soliq bazasi, o'zini o'zi band qilgan shaxslar, institutsional islohotlar, fiskal samaradorlik.

**Abstract.** The article analyzes the economic efficiency of institutional reforms implemented in the taxi services market of Uzbekistan. Based on statistical data, the study evaluates the impact of simplified licensing procedures, the introduction of digital platforms, and the development of the self-employed drivers' institution, which led to increased formalization and expansion of the tax base. The findings indicate that between 2018 and 2025, the number of officially registered drivers increased approximately 22-fold, while tax revenues became a stable fiscal source. The paper provides an economic analysis of the fiscal efficiency mechanism emerging under the “broad coverage — low rate” model.

**Key words:** small business, taxi market, digital platforms, licensing, fiscalization, tax base, self-employed individuals, institutional reforms, fiscal efficiency.

**Аннотация.** В статье проанализирована экономическая эффективность институциональных реформ, реализованных на рынке таксомоторных услуг в Узбекистане. На основе статистических данных оценены результаты упрощения порядка лицензирования, внедрения цифровых платформ и развития института самозанятых водителей, что привело к росту уровня формализации и расширению налоговой базы. Согласно результатам исследования, в 2018–2025 годах число официально зарегистрированных водителей увеличилось примерно в 22 раза, а налоговые поступления превратились в стабильный фискальный источник. В работе дана экономическая интерпретация механизма фискальной эффективности, формирующегося в условиях модели «широкий охват — низкая ставка».

**Ключевые слова:** малый бизнес, рынок такси, цифровые платформы, лицензирование, фискализация, налоговая база, самозанятые лица, институциональные реформы, фискальная эффективность.

## KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlovchi strategik omil sifatida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, institutsional transformatsiya va iqtisodiy liberallashtirish jarayonlarini boshdan kechirayotgan mamlakatlarda mazkur sektor ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash, bandlikni ta'minlash, raqobat muhitini shakllantirish hamda soliq bazasini kengaytirishda muhim rol o'ynaydi.

O'zbekiston iqtisodiyotida ham kichik biznes subyektlari yalpi ichki mahsulot tarkibida yuqori ulushga ega bo'lib, qishloq xo'jaligi, qurilish, savdo, sanoat va xizmat ko'rsatish sohalarida yetakchi pozitsiyani egallab kelmoqda. Xususan, xizmat ko'rsatish sohasining muhim tarmoqlaridan biri bo'lgan transport xizmatlari, jumladan, taksi xizmatlari bozori so'nggi yillarda institutsional islohotlar va raqamlashtirish jarayonlari natijasida jadal rivojlanmoqda.



Raqamli platformalar asosida faoliyat yurituvchi agregator kompaniyalarning fiskallashtirilishi, litsenziyalash tartibining soddalashtirilishi hamda o'zini o'zi band qilgan shaxslar institutining rivojlanishi natijasida sohaning legallashtirish darajasi sezilarli oshdi. Natijada rasmiy ro'yxatdan o'tgan haydovchilar soni bir necha barobarga ko'paydi, soliq tushumlari barqarorlashdi va norasmiy iqtisodiyot ulushi bosqichma-bosqich qisqardi.

Mazkur tadqiqotda O'zbekistonda taksi xizmatlari bozorida amalga oshirilgan institutsional islohotlarning iqtisodiy samaradorligi tahlil qilinadi. Xususan, litsenziyalash tartibi soddalashtirilishining rasmiylashtirish darajasi, soliq bazasining kengayishi hamda fiskal barqarorlikka ta'siri iqtisodiy hisob-kitoblar asosida baholanadi. Shuningdek, "keng qamrov – past stavka" modeli doirasida shakllanayotgan fiskal mexanizmning samaradorligi ilmiy asosda yoritiladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning milliy iqtisodiyot rivojlanishidagi o'rni iqtisodiy adabiyotlarda keng yoritilgan. Zamonaviy institutsional iqtisodiyot nazariyasiga ko'ra, iqtisodiy o'sish sur'atlari va barqarorligi institutlar sifatiga bevosita bog'liqdir. Xususan, D. North institutsional muhitni iqtisodiy rag'batlar tizimi sifatida talqin qilib, samarali qonunchilik hamda shaffof tartibga solish mexanizmlari bozor ishtirokchilari faolligini oshirishini ta'kidlaydi. Shu nuqtai nazardan, litsenziyalash tartibining soddalashtirilishi va ma'muriy to'siqlarning qisqartirilishi kichik biznes subyektlarining rasmiy sektorga kirib kelishini rag'batlantiruvchi omil sifatida namoyon bo'ladi.

D. Acemoglu va J. Robinson tomonidan ilgari surilgan "inklyuziv institutlar" konsepsiyasiga muvofiq, iqtisodiy imkoniyatlardan keng ommada foydalana oladigan muhit yaratilishi barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi. Ularning tadqiqotlarida institutsional islohotlar orqali iqtisodiy faollikni legallashtirish hamda soliq bazasini kengaytirish uzoq muddatli rivojlanish omili sifatida baholanadi. O'zbekistonda taksi xizmatlari bozorida amalga oshirilgan raqamlashtirish va fiskallashtirish jarayonlari mazkur nazariy yondashuvlarga mos ravishda inklyuziv iqtisodiy mexanizmlarni shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Xalqaro tashkilotlar tadqiqotlarida ham raqamli platformalarning soliq ma'murchiligi samaradorligini oshirishdagi ahamiyati alohida qayd etilgan. Xalqaro valyuta jamg'armasi (IMF) hisobotlarida raqamli xizmat platformalari soliq bazasini kengaytirish, norasmiy iqtisodiyot ulushini qisqartirish va tranzaksiyalar shaffofligini ta'minlashda muhim instrument sifatida baholanadi. OECD tahlillarida esa raqamlashtirish orqali soliq ma'murchiligining avtomatlashtirilishi ma'muriy xarajatlarni kamaytirish hamda tushumlar barqarorligini ta'minlash omillaridan biri ekani ko'rsatib o'tilgan.

Jahon banki tadqiqotlarida rivojlanayotgan mamlakatlarda o'zini o'zi band qilgan shaxslarni rasmiy sektorga jalb etishning samarali mexanizmi sifatida yengil soliq rejimlari va raqamli ro'yxatdan o'tish tizimlari tavsiya etiladi. Mazkur yondashuv "keng qamrov – past stavka" modeli orqali ommaviy legallashtirishga erishish mumkinligini nazariy jihatdan asoslaydi.

Mahalliy ilmiy adabiyotlarda ham transport va xizmat ko'rsatish sohasida kichik biznesning ahamiyatiga doir tadqiqotlar mavjud. Ularda kichik biznes subyektlarining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi, bandlikni ta'minlashdagi roli hamda soliq tushumlariga ta'siri tahlil qilingan. Biroq taksi xizmatlari bozorida institutsional islohotlarning fiskal samaradorlik nuqtai nazaridan dinamik baholanishi masalasi yetarli darajada yoritilmagan.

Shu jihatdan mazkur tadqiqot mavjud adabiyotlarni to'ldirgan holda, litsenziyalash soddalashtirish va raqamli platformalashtirish jarayonlarining soliq bazasi kengayishiga ta'sirini empirik ma'lumotlar asosida tahlil qiladi. Xususan, rasmiy haydovchilar sonining sezilarli o'sishi hamda soliq tushumlarining barqarorlashuvi institutsional islohotlar samaradorligini ko'rsatuvchi muhim indikator sifatida baholanadi.

Shunday qilib, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, raqamli platformalar asosida xizmat ko'rsatish bozorlarini legallashtirish va fiskallashtirish zamonaviy institutsional iqtisodiyot nazariyasiga muvofiq holda iqtisodiy o'sish hamda soliq bazasini kengaytirishning samarali vositasi hisoblanadi. O'zbekistonda taksi xizmatlari bozori misolida amalga oshirilgan islohotlar mazkur nazariy xulosalarni amaliyotda tasdiqlayotgan holat sifatida baholanishi mumkin.

Mazkur maqolaning maqsadi – O'zbekistonda transport sohasida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy ahamiyatini tahlil qilish, yuk tashish xizmatlari bozorida kichik biznes ulushining dinamikasini baholash hamda sohani rivojlantirish bo'yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot obyekti sifatida respublikadagi yuk tashish xizmatlari bozori, predmeti sifatida esa mazkur bozorda faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlarining iqtisodiy roli va institutsional muhiti tanlab olindi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot davomida statistik tahlil, taqqoslash, tizimli yondashuv hamda me'yoriy-huquqiy hujjatlarni kontent-tahlil qilish usullaridan foydalaniildi. Olingan natijalar transport sohasida kichik biznes subyektlarining





iqtisodiy ahamiyatini chuqurroq anglash, ularning samaradorligini oshirish hamda milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Bozor iqtisodiyoti tamoyillariga asoslangan har qanday mamlakat iqtisodiyotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, o'tish davrida yuzaga keladigan ijtimoiy va iqtisodiy masalalarni samarali hal etishda kichik biznes subyektlarining roli sezilarlidir. Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida ham kichik biznesni qo'llab-quvvatlash bo'yicha turli dasturlar ishlab chiqilib, izchil amalga oshirilmoqda. Mazkur mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, kichik biznes sektori iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi va uzluksiz o'sishini ta'minlashga xizmat qiladi hamda aholining katta qismini ish bilan band etadi. Ushbu davlatlarda yalpi ichki mahsulotning qariyb 60–70 foizi kichik va o'rta biznes subyektlari hissasiga to'g'ri keladi.

Kichik biznes subyektlari O'zbekiston iqtisodiyotida ham muhim o'rin egallaydi. So'nggi yillarda ularning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi sezilarli darajada oshib, barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etmoqda. Bu holat mamlakatda olib borilayotgan iqtisodiy siyosat samaradorligining muhim ko'rsatkichlaridan biri sifatida baholanishi mumkin.

Hozirgi ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatimiz iqtisodiyotida kichik biznes subyektlarining YAIMdagi ulushi quyidagicha shakllangan:

**Qishloq xo'jaligi:** kichik biznes subyektlari ushbu sohada yetakchi o'rinni egallab, YAIMning taxminan 95–97 foizini ta'minlaydi. Ular dehqon va fermer xo'jaliklari, agrobiznes hamda chorvachilik yo'nalishlarida faoliyat yuritadi.

**Qurilish:** sohadagi ulushi taxminan 75–80 foizni tashkil etib, xususiy qurilish tashkilotlari va pudratchilar infratuzilma hamda uy-joy qurilishida muhim vazifani bajaradi.

**Sanoat:** kichik biznes subyektlari sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda muhim rol o'ynaydi. Ularning YAIMdagi ulushi taxminan 70–78 foizni tashkil etadi, ayniqsa qayta ishlash sanoatida sezilarli natijalar kuzatiladi.

**Savdo:** chakana va ulgurji savdoda kichik biznes subyektlarining ulushi taxminan 85–90 foizga teng.

**Xizmat ko'rsatish sohasi:** kichik biznes subyektlari mazkur sohada ham faol ishtirok etadi. Ular ta'lim, turizm, IT va raqamli xizmatlar, tibbiyot, transport xizmatlari hamda boshqa yo'nalishlarda xizmatlar ko'rsatadi. Ushbu sohaning YAIMdagi ulushi taxminan 45–50 foizni tashkil etadi.

Xizmat ko'rsatish sohasi tarmoqlaridan biri bo'lgan transport xizmatlari doirasida taksi bozori alohida o'rin tutadi. 2023-yilda jahon taksi bozori hajmi 253,27 milliard AQSh dollariga baholangan bo'lib, 2028-yilga borib ushbu ko'rsatkich 388,79 milliard AQSh dollariga yetishi prognoz qilinmoqda. Bu 2023–2028-yillar davrida o'rtacha yillik 8,95 foizlik o'sish sur'atini anglatadi.

Xalqaro valyuta jamg'armasi tadqiqotlarida raqamli platformalar asosidagi xizmatlar iqtisodiyotda soliq bazasini kengaytirish va institutsional samaradorlikni oshirishda muhim omil ekani ta'kidlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yildan boshlab mamlakatda raqamli taksi platformalarining soliq to'lovchi sifatida rasmiy ro'yxatdan o'tishi natijasida xizmatlar sohasida soliq intizomi sezilarli darajada yaxshilandi. Mazkur jarayon taksi xizmatlari bozorini legallashtirish hamda daromadlarni shaffolashtirishga qaratilgan institutsional islohotlarning amaliy natijasi sifatida baholanadi. So'nggi yillarda taksi xizmatlarini fiskallashtirish va raqamlashtirish mexanizmlarining joriy etilishi sohada shaffoflikni oshirish, soliq tushumlarini kengaytirish hamda norasmiy iqtisodiyot ulushini bosqichma-bosqich qisqartirishga xizmat qilmoqda.

O'zbekistonda taksi xizmatlari bir qator kompaniyalar tomonidan amalga oshiriladi. Ular orasida "Yandex Go" (avvalgi "Yandex Taksi"), "Fasten", "MyTaxi", "Taxi Millennium", "Taxi.uz" va "Uklon" keng tarqalgan. Mazkur kompaniyalar fiskallashtirish jarayonida faol ishtirok etib, xizmat ko'rsatish jarayonlarini amaldagi soliq qonunchiligi talablariga muvofiq ravishda tashkil etmoqda hamda davlat organlari bilan hamkorlik qilmoqda.

2023-yildan boshlab "Yandex Go", "Uklon" va "MyTaxi" xizmatlari O'zbekiston Respublikasida soliq to'lovchi sifatida rasmiy faoliyat yuritishni boshladi hamda xizmatlarni fiskal ma'lumotlar operatorlari bilan integratsiyalash jarayonini amalga oshirdi. Natijada xizmat ko'rsatish jarayonlari amaldagi qonunchilik talablariga to'liq moslashtirildi.

Umuman olganda, taksi xizmatlari bozorida amalga oshirilayotgan islohotlar va yangi texnologiyalarning joriy etilishi natijasida ushbu soha barqaror o'sish sur'atlarini namoyon etmoqda. Taksi xizmati bilan shug'ullanuvchi kichik biznes subyektlari hamda rasmiy ro'yxatdan o'tgan kompaniyalar soni ortib bormoqda. Ular orqali faoliyat yuritayotgan haydovchilar sonining ko'payishi xizmat ko'rsatish sifatini oshirish va xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni izchil amalga oshirish imkonini bermoqda.

Shuningdek, patent asosida taksi faoliyatini amalga oshirish mexanizmi ishsizlik darajasini kamaytirish va aholining iqtisodiy faolligini oshirishga xizmat qiladi. Bu tartib ko'plab haydovchilarni rasmiy faoliyatga jalb etishni yengillashtiradi.



Masalan, “Yandex Go” 2023-yilda O‘zbekistonda yuridik shaxs sifatida ro‘yxatdan o‘tgach, haydovchilar va yo‘lovchilar uchun sug‘urta qoplamasini joriy etdi. Shuningdek, kompaniya STEM ta‘lim dasturlari hamda IT sohasini rivojlantirishga investitsiya kiritdi, bu esa xizmat ko‘rsatish darajasining yanada oshishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatdi. Mazkur o‘zgarishlarni keyingi jadval ma‘lumotlari orqali kuzatish mumkin.

1-jadval. Taksi bozorida litsenziyalash tartibi soddalashtirishdan oldin va keyingi holat

| Ko‘rsatkich                                   | 2021-yil (islohotgacha) | 2024–2025 yil (islohotdan keyin) | O‘zgarish dinamikasi     |
|-----------------------------------------------|-------------------------|----------------------------------|--------------------------|
| Rasmiy ro‘yxatdan o‘tgan taksi haydovchilari  | ≈ 20–25 ming nafar      | ≈ 120–150 ming nafar             | 5–6 barobar o‘shish      |
| Soliq to‘lovchi sifatida ro‘yxatdan o‘tganlar | Past darajada           | Keng qamrov                      | Soliq bazasi kengaydi    |
| Norasmiy faoliyat ulushi                      | ≈ 60–70 %               | ≈ 25–35 %                        | Sezilarli qisqarish      |
| Raqamli platformalar orqali ishlovchilar      | Cheklangan              | Asosiy ulush                     | Platformalashuv kuchaydi |

(Ma‘lumotlar Davlat soliq qo‘mitasi, Transport vazirligi va ochiq statistik hisobotlar asosida tahliliy umumlashtirish shaklida berilgan.)

Yuqoridagi statistik ma‘lumotlardan ko‘rinib turibdiki, avtomobil transporti orqali yo‘lovchi tashish sohasida O‘zbekistonda litsenziyalash tartibi soddalashtirilishidan avvalgi va keyingi holatni qiyosiy tahlil qilish imkoniyati mavjud.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-iyuldagi PQ-311-son “Avtotransport vositalarini boshqarishda va yo‘nalishsiz taksi faoliyatini amalga oshirishda qo‘shimcha qulayliklar yaratish to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 2-apreldagi 200-sonli qarori bilan yo‘nalishsiz taksi sifatida faoliyat yuritish uchun litsenziya varaqalarini olish talablari yanada soddalashtirildi, avtotransport vositasini boshqarishda ishonchnomani notarial tasdiqlash talabi bekor qilindi hamda o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar uchun qo‘shimcha yengilliklar yaratildi.

Mazkur qarorlarning asosiy maqsad va yengilliklari quyidagilardan iborat:

Yo‘nalishsiz taksi faoliyati: jismoniy shaxslar o‘zini o‘zi band qilgan holda yo‘nalishsiz taksi xizmati bilan shug‘ullanishi mumkin. Bunda litsenziya varaqasi bepul beriladi.

Hujjatlarni soddalashtirish: avtotransport vositasini boshqarishda ishonchnomani notarial tasdiqlash hamda ichki ishlar organlarida ro‘yxatdan o‘tkazish talabi bekor qilindi.

Bandlikni oshirish: transport sohasida qo‘shimcha ish o‘rinlari yaratish, qonuniy faoliyat yuritishni rag‘batlantirish hamda fuqarolarni rasmiy mehnat faoliyatiga jalb etish imkoniyatlari kengaytirildi.

Davlat tomonidan tarmoqni takomillashtirish va litsenziyalash tartiblarini yengillashtirish natijasida so‘nggi yillarda O‘zbekistonda taksi faoliyatini tartibga solish mexanizmi sezilarli darajada soddalashtirildi. Xususan:

- yakka tartibdagi tadbirkor sifatida onlayn ro‘yxatdan o‘tish imkoniyati yaratildi;
- litsenziya olish jarayoni raqamlashtirildi;
- davlat bojlari va talab etiladigan hujjatlar soni qisqartirildi;
- agregator platformalar orqali rasmiy faoliyat yuritish imkoniyati kengaytirildi.

Mazkur islohotlar sohaning legallashtirish darajasini oshirish, soliq bazasini kengaytirish hamda fiskal barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda.



1-rasm. O‘zbekistonda taksi haydovchilarining rasmiylashuvi dinamikasi (tanlab olingan nuqtalar)



Yuqoridagi jadvalda keltirilgan grafik ma'lumotlari litsenziyalashtirish tartibining soddalashtirilishi natijasida taksi bozorida rasmiy ro'yxatdan o'tgan haydovchilar soni keskin oshganini ko'rsatadi.

2017-yil davomida 17 900 nafar litsenziyaga ega taksi haydovchisi faoliyat yuritgan bo'lsa, 2018-yilga kelib bu ko'rsatkich 24 700 nafarga yetgan.

2023-yil iyun holatiga ko'ra, qariyb 150 000 nafar ro'yxatdan o'tgan haydovchi shakllangan. 2024-yil avgust oyida esa 576,1 ming nafar fuqaro o'zini o'zi band qilgan taksi haydovchisi sifatida rasmiy ro'yxatdan o'tgan.

2025-yilda agregator platformalar orqali faoliyat yuritayotgan o'zini o'zi band qilgan haydovchilar soni 574,6 ming nafarga yetgan.

Mazkur ko'rsatkichlar litsenziyalash jarayonining soddalashtirilishi va raqamli platformalarning joriy etilishi natijasida sohada rasmiylashuv darajasi izchil oshib borayotganini yaqqol namoyon etadi.

## 2-jadval. Taksi sohasida soliq tushumlari dinamikasi

| Ko'rsatkich                 | Islohotgacha (2017–2018) | Islohotdan keyin (2024–2025) | O'zgarish            |
|-----------------------------|--------------------------|------------------------------|----------------------|
| Rasmiy haydovchilar soni    | 17–25 ming               | 570+ ming                    | ~20 barobar o'sish   |
| Agregatorlar orqali aylanma | Cheklangan               | 9,6 trln so'm (2025)         | Keskin o'sish        |
| Soliq tushumlari            | Past va tarqoq           | 128,2 mlrd so'm (2025)       | Barqaror fiskal baza |
| Norasmiy ulush              | 60–70 %                  | 25–35 %                      | Qisqarish            |

Yuqoridagi jadval ma'lumotlariga tayangan holda fiskal samaradorlikni iqtisodiy jihatdan baholaydigan bo'lsak, soliq bazasining sezilarli kengayganini kuzatish mumkin.

Agar 2018-yilda 25 ming nafar haydovchi rasmiy ro'yxatda bo'lgan bo'lsa, 2025-yilga kelib 570 mingdan ortiq haydovchi soliq tizimiga jalb etilgan.

Rasmiylashuvning o'sish dinamikasi quyidagicha hisoblanadi:

$570\,000 / 25\,000 \approx 22,8$  barobar.

Demak, institutsional islohotlar natijasida soliq potentsiali qariyb 23 barobarga kengaygan. Bu ko'rsatkich sohada amalga oshirilgan soddalashtirish va raqamlashtirish choralari fiskal qamrovni sezilarli darajada oshirganini anglatadi.

2025-yilda bir nafar haydovchiga to'g'ri keladigan o'rtacha soliq yukini hisoblaydigan bo'lsak:

$128,2\text{ mlrd so'm} / 574\,600\text{ nafar haydovchi} \approx 223\,100\text{ so'm}$ .

Demak, bir haydovchiga to'g'ri keladigan o'rtacha yillik soliq tushumi taxminan 223 ming so'mni tashkil etadi. Ushbu ko'rsatkich past soliq yuki sharoitida ham ommaviy fiskal ta'sir shakllanayotganini ko'rsatadi.

2025-yil davomida 9,6 trln so'mlik aylanmadan 128,2 mlrd so'm soliq tushganini inobatga olsak, umumiy soliq yuki quyidagicha aniqlanadi:

$128,2\text{ mlrd} / 9,6\text{ trln} \approx 0,0133$  yoki 1,33 %.

Shunday qilib, taxminan 1,3 foizlik samarali soliq stavkasi sharoitida keng qamrovli rasmiylashuv hisobiga barqaror fiskal tushum shakllangan. Bu holat "keng qamrov — past stavka" modeli amaliy jihatdan samarali ishlayotganini ko'rsatadi.

$$\text{Солікулуми} = \frac{128,2 \text{ млрд сўм}}{9600 \text{ млрд сўм}} \times 100 \approx 1,33\%$$

Ya'ni, taksi xizmatlari sohasida 2025-yilda shakllangan umumiy aylanmaning taxminan 1,33 foizi soliq tushumi sifatida davlat byudjetiga yo'naltirilgan bo'lib, bu ko'rsatkich soliq yukining yengil rejimi sharoitida faoliyat yuritayotgan o'zini o'zi band qilgan haydovchilar uchun maqbul fiskal yuk darajasi hisoblanadi hamda "keng qamrov — past stavka" modeli orqali barqaror soliq tushumlarini ta'minlash imkonini bermoqda.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda taksi xizmatlari bozorida amalga oshirilgan institutsional islohotlar iqtisodiy va fiskal samaradorlik nuqtai nazaridan ijobiy natijalar berdi. Litsenziyalash tartibining soddalashtirilishi, raqamli agregator platformalarning huquqiy maydonga kiritilishi hamda o'zini o'zi band qilgan shaxslar institutining rivojlantirilishi natijasida sohaning legallashtirish darajasi sezilarli darajada oshdi.



2018–2025-yillar davomida rasmiy ro'yxatdan o'tgan haydovchilar soni bir necha barobarga ko'payib, soliq bazasi kengaydi va barqaror fiskal manba shakllandi. 2025-yilda shakllangan aylanma va soliq tushumlari ko'rsatkichlari "keng qamrov – past stavka" modeli sharoitida ham ommaviy legallashuv orqali sezilarli byudjet samaradorligiga erishish mumkinligini tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, tahlillar institutsional islohotlarning multiplikativ ta'sirini ham namoyon etmoqda. Taksi bozoridagi legallashuv nafaqat soliq tushumlarining oshishiga, balki mehnat bozorida bandlik darajasining ortishiga, raqobat muhitining shakllanishiga va xizmat ko'rsatish sifatining yaxshilanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Raqamli platformalar orqali to'lovlarning elektronlashuvi moliyaviy shaffoflikni ta'minlab, norasmiy iqtisodiyot ulushining qisqarishiga xizmat qildi. Bu esa davlat byudjeti barqarorligini mustahkamlash bilan bir qatorda, investitsion jozibadorlikni oshirish uchun ham qulay institutsional muhit yaratmoqda.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi takliflar ilgari suriladi:

- raqamli platformalar, soliq organlari va litsenziyalash tizimi o'rtasida real vaqt rejimida axborot integratsiyasini chuqurlashtirish;
- soliq yukini keskin oshirmasdan, ommaviy legallashuvni rag'batlantiruvchi "keng qamrov – past stavka" modelini saqlash va takomillashtirish;
- o'zini o'zi band qilgan taksi haydovchilari uchun pensiya, tibbiy sug'urta va mehnat stajini avtomatik hisobga olish tizimini joriy etish;
- chekka hududlarda taksi xizmatlarini rivojlantirish maqsadida imtiyozli litsenziya yoki soliq mexanizmlarini qo'llash;
- soliq intizomi yuqori bo'lgan sub'yektlar uchun reyting va rag'batlantirish tizimini joriy etish;
- taksi bozorida shakllangan institutsional-fiskal tajribani boshqa platformaviy xizmat turlariga bosqichma-bosqich tatbiq etish.

Kelgusida mazkur sohada empirik tadqiqotlarni chuqurlashtirish, hududiy kesimda tahlillar o'tkazish va fiskal samaradorlikni baholovchi indikatorlar tizimini ishlab chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shu tariqa, taksi xizmatlari sohasida amalga oshirilgan institutsional transformatsiya norasmiy iqtisodiyot ulushini qisqartirish va soliq bazasini kengaytirish bo'yicha samarali mexanizm sifatida namoyon bo'lmoqda. Mazkur modelni izchil takomillashtirish va bosqichma-bosqich kengaytirish milliy iqtisodiyot barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mordor Intelligence. Taxi Market – Growth, Trends, COVID-19 Impact, and Forecasts (2023–2028). – Hyderabad, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi. Raqamli platformalar faoliyatini soliqqa tortish bo'yicha 2023–2024-yillar natijalari to'g'risida hisobot. – Toshkent, 2024.
3. Gazeta.uz. O'zini o'zi band qilgan taksi haydovchilari soni (2024-yil).
4. UZA.uz. O'zbekiston Milliy axborot agentligi materiallari.
5. International Monetary Fund (IMF). Digital Platforms and Tax Base Expansion. – Washington, D.C., 2023.
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Avtomobil transportida yo'lovchi tashish faoliyatini litsenziyalash tartibini takomillashtirish to'g'risida qarorlar. – Toshkent, 2021–2023.
7. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi. Raqamli platformalar orqali xizmat ko'rsatish sub'yektlarini fiskallashtirish bo'yicha hisobot materiallari. – Toshkent, 2024–2025.
8. O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi. Avtomobil transporti sohasida litsenziyalash va ro'yxatdan o'tkazish statistikasi. – Toshkent, 2024.
9. International Monetary Fund. Digital Platforms and Tax Administration in Emerging Markets. – Washington, D.C.: IMF Working Paper, 2023.
10. OECD. Tax Administration 2023: Comparative Information on OECD and Other Advanced and Emerging Economies. – Paris: OECD Publishing, 2023.
11. World Bank. Leveraging Digitalization for Tax Compliance in Developing Countries. – Washington, D.C.: World Bank Group, 2022.
12. Rodrik D. Institutions for High-Quality Growth: What They Are and How to Acquire Them // Studies in Comparative International Development. – 2000. – Vol. 35(3). – P. 3–31.
13. Acemoglu D., Robinson J. Why Nations Fail: The Origins of Power, Prosperity and Poverty. – New York: Crown Business, 2012.
14. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bo'yicha rasmiy statistik to'plam. – Toshkent, 2023–2025.





## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

### 2026. № 2

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>